



## Muhammad Yusuf's poetry is forever in our hearts

### Muhammad Yusuf she'riyati mangu qalbimizda

Safarova Dildora Erkinovna

Shahrisabz XTBga qarashli 46-sonli

maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'zbekiston , Qashqadaryo

[Tel:+998901312811](tel:+998901312811)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqida. Shoiring hayoti, ijodi va oilasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek , shoir ijodining rang- barangligiga va she'rlarining tahliliga doir bir qancha ma'lumotlar keltirilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Dilkash, she'riyat, qalb, avliyo, xalq dardi , saxiylik timsoli, o'lmas ijod.

**АННОТАЦИЯ:** Эта статья о народном поэте Узбекистана Мухаммаде Юсуфе. Отдельно обсуждаются жизнь, творчество и семья поэта. Также представлены некоторые сведения о разнообразии творчества поэта и анализ его стихов.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Дилкаш, поэзия, сердце, святой, народная боль, символ щедрости, бессмертное творение.

**ANNOTATION:** This article is about the national poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf. The poet's life, work, and family are discussed separately. Also, some information about the diversity of the poet's work and the analysis of his poems are presented.

**KEY WORDS:** Dilkash, poetry, heart, saint, people's pain, symbol of generosity, immortal creation.

Yuraklarda yurmagini

Oh, oldindan bilgan qush,

Har o'zbekning yuragini

O'ziniki qilgan qush...



O'zbekiston deya atalmish shunday go'zal bo'stonda yashaymizki, butun dunyo bizga havas ila boqadi. Bizning yurt shunday yurtki: tabiat go'zal, quyoshi charog'on, insonlari mehribon, mehnatkash, shoirlari dilkash, yozuvchilari esa o'tkir qalam sohiblari. Shuning uchun ham yurtimizni madh qilmagan shoirlar qolmagan. Mana shunday shoirlardan biri "O'zbekiston xalq shoiri", o'z she'rlari bilan millionlab muxlislarning qalbidan joy egallagan inson – Muhammad Yusufdir. O'zbek qo'shiqchilik san'ati va she'riyatiga o'zini alohida hissasini qo'shgan shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy zahmatkash oilada tug'ilgan. Shoirning bolaligi, quvnoq damlari mana shu qishloqda o'tadi. O'rta mакtabni bitirgach, u Toshkentdagи Rus tili va adabiyot institutiga o'qishga kiradi va uni 1978-yilda tugatadi. Shundan keyin shoir "Kitobsevarlar respublika jamiyatida, "Toshkent oqshomi" gazetasida, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, "O'zbekiston ovozi" gazetasida va Axborot agentligida ishladi. 1995-1996- yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o'qidi. 1997-yildan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinosari lavozimida ishladi.<sup>1</sup> Uning dastlabki she'rlaridan na'munalar 1976-yilda "O'zbekiston madaniyati" haftaligi sahifalarida chop etiladi. Shoirning she'rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo'lsada, birinchi she'riy to'plami kechroq ya'ni 1985-yil e'lon qilingandi. Shundan keyin shoirning "Bulbulga bir gapim bor" (1987), "Iltijo" (1988), "Uyqudagi qiz" (1989), "Halima enam allalari" (1989), "Ishq kemasi" (1990), "Ko'nglimda bir yor" (1990), "Bevafo ko'p ekan" (1991), "Yolg'onchi yor", "Erka kiyik" (1992), "Osmonimga olib ketaman" singari o'nlab majmualari o'quvchilar qo'liga yetib bordi. Mustaqillik yillarda shoir ijodi uchun yangi sahifalar ochildi. Endilikda shoirning she'rlariga qiziqish ortib, uning ijodi yana rivojlanib bordi. Shoirning "Vatanim", "Xalq bo'l elim", "Dunyo", "Inshoollo", "O'zbekmomo", "Iqror", "Tilak" singari she'rlari buning yorqin misolidir. Ammo Muhammad Yusufning umri qisqa bo'ldi. U 2001-yil 31-iyulda Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumaniga qilingan ijodiy safar chog'ida millionlab muhlislari oldida she'r o'qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi. Xuddi Boburdek, Shavkat Rahmondek atigi 47-yil umr ko'rди. Lekin bu yillar mobaynida shoir o'zini xalqqa kim ekanligini, go'zal she'rlari bilan muxlislarni ko'nglini zabt etib bo'lgan edi.

<sup>1</sup> Adabiyot S.Olim, A.Sunnat G'afur G'ulom nashriyoti Toshkent-2014



Endi Muhammad Yusufning oilasi haqida to'xtalib o'tamiz . Muhammad Yusufning turmush o'rtog'i Nazira As-Salom . Nazira As-Assalom ham shoira bo'lganlar . Shoira Toshkent shahridagi mashhur "O'qituvchi" nashriyotida talabalik yillaridayoq ish boshlaganlar. Xuddi mana shu yerda ular bir- birlarini uchratib qolganlar. Muhammad Yusuf shoirani bir ko'rganlarida shu mening taqdirim degan ekanlar. Shu tariqa shoir Nazira As-Assalomni bekatlarda kutib o'tirar ekanlar . Quyidagi she'r o'sha paytlarda yozilgan.

Bekatlarda men qolarman-da ,

Aytar so'zim qolib ketadi.

Tramvaylar seni har kuni

Bodomzorga olib ketadi.

Kunlardan bir kuni shoir Naziraning she'rlarini olib kelib jurnalga chiqganini ko'rsatadi. Shundan so'ng Nazira As-Assalom Muhammad Yusufning shoir ekanligini bilibdi. Shu –shu ular bir-birlarini tanishib turmush qurushibdi. Shoirning uchta qizi bor. Bular: Ma'suda, Nozima va Madina . Qizi Ma'sudadan keyin Sherzod ismli o'g'li ham bo'ladi. Ammo o'g'li 27 yoshida vafot etgan. Shoirning qizlarining hammasi o'qimishli , she'rlar yozishadi.

Endi shoirning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qaysi bir she'rini tahlil qilishga o'ylanamiz. Nega deganda shoirning har bir she'rining minglab muxlislari bor. Muhammad Yusuf shunday degan xalqda "Shoirlar avliyodirlar!" degan naql bor." Shoirlar she'rni o'zlari yozmaydilar. Kimdir aytib turadi. Bo'lmasa nega o'zingning she'ringga o'zing yig'laysan..." Shoirning bu gapi bila biz shoirlik ham bir tug'ma talant , u ham hammaga berilavermasligini tushunib yetamiz. Shoirning she'rlaridan biri menga juda yoqadi. Uni birinchi marta o'qiganimda ko'zimga yosh kelgan. Har safar qayta-qayta o'qiyveraman. Ushbu she'rning nomi "Uch o'g'il bir qiz qissasi". Endi she'rni tahliliga o'tamiz. Ishonamanki, bu she'r sizlarga ham juda yoqadi.

Mo'min cholning uch o'g'il,

Yolg'iz qizi bor edi.

Tuhfa edi taqdirdan,

Kampirdan yodgor edi.<sup>2</sup>

She'r xuddi shu misralar bilan boshlanadi. Jami 22 kublidan iborat. Men faqat bu she'rning mazmun –mohiyatiga to'xtalib o'taman. Demak , cholning uchta o'g'li va bitta qizi bo'ladi.Uning xotini o'Igan bo'ladi. Qizini-ku bir kun kelib egasi olib ketadi, lekin chol ayni damda kenja o'g'liga qiz izlab yuradi.Chol ancha qarib

<sup>2</sup> Muhammad Yusuf "shoir sevgisi" "Noshir" Toshkent-2019(32-bet)



# **PEDAGOGICAL CLUSTER**

JOURNAL OF PEDAGOGICAL DEVELOPMENTS



Website: <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/index>

qolgan ,bu ishlar unga ancha qiyinlik qiladi, ammo kenja o'g'li juda qaysar bo'ladi. Shu tobda chol kampirini eslaydi . Kampir tili shirin , gapga chechan ayol bo'ladi. Chol kelin ham topadi, ammo to'y uchun puli biroz yetmaydi. Shunda u eski qadronidan biroz qarz oladi. To'y juda chiroyli o'tadi. To'ydan so'ng Mo'min chol kasal bo'lib yotib qoladi. Chol ajali yetganini sezadi, lekin qizini taqdirini o'ylab ancha eziladi. Chol o'ladi.Hamma yig'iladi.

Marhum qanday zot edi?

Udumda bor bu savol.

Halol edi, dedilar,

Halol edi Mo'min chol.

Shu payt do'sti cholning ozroq qarzi bor ekanligini aytib qoldi. Lekin shu paytda cholning uchta o'g'li otasining bunday do'stini tanimasligini aytdilar. Ammo shu payt davraga qiz otilib kirdi.Akalari bo'ldi gapirmas, otamni qarzini men to'layman dedi. Agar u inson xohlasa unga turmushga chiqaman dedi.

Xaloyiq lol . Bu ne hol,

Bu ne savdo , yoronlar

Otasidan oldinroq

O'lar bo'ldi o'g'lonlar!

Cholning do'sti bu o'g'illarni ko'rib hayratda qoladi. Qishloqdagilar bu uch o'g'ilni qishloqdan haydashadi. Qiz esa yashar o'z ota uyida, chunki unga mos yigit bu dunyoda topilmaydi. Ko'rib turganingizdek bu she'r juda sodda 4 qatordan iboratdek ko'rindi, lekin uning ma'nosi anchagina. Mana shu voqeа bugungi kunning haqiqiy muammosi. Nega deganda hozirda o'z ota-onasini hurmat qilmaydiganlar ko'payib ketgan. Qanday qilib biz uchun jonini beradigan insonlarni ya'ni ota-onamizni unutib qo'yishimiz mumkin. Mo'min chol ham o'sha qarzni o'zi uchun olmagandi. O'g'lining to'yi uchun olgandi. Ammo o'g'illar otasining o'limiga ham kechikib kelishadi. Mana bu yo'qolgan oqibatdir. Mana o'sha misralar:

Uch pahlavon uch pari

Paykarga qul edilar.

Otamning bunday do'stin

Tanimaymiz , dedilar.

Demak bu uch o'g'il rostini aytganda xotinlarining quli. Bu shunchaki yozib qo'yilgan she'r emas. Shoир buni hayoti davomida ko'rgan.

Rivoyatmas aytganim ,

Hikmat bo'lmas yolg'onda.



Bu voqeа ro'y berdi

Shu kunda, shu zamonda.

Muhammad Yusufning umri qisqa bo'ldi. Ammo u shu qisqa umrida yonib ijod qildi. Bizga anchagina meros qoldirdi. Uning she'rlarida xalqning dardi, insonlarning dardi to'liq olib berilgan. Shuning uchun ham uning deyarli hamma she'rlari qo'shiqqa aylangan. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad Muhammad Yusuf haqida shunday degan edi: "Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarning esini og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan, yig'latgan, topgan – tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Birorta shoир uningdek tez nom chiqarmagan . Ochig'ini aytsam Muhammadga ko'z tegdi. Aslini olganda asil shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortidan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar . U mana shunday o'lmas meros qoldirdi. Muhammad she'r muhlislari yuragini ortab ketdi. Endi shoirning o'zi yo'q . Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she'riyat bor. Bu she'riyat aslo zavol bilmaydi"<sup>3</sup>. Muhammad Yusuf qalbimizda bardavom yashayveradi. Uning go'zal va sermahsul ijodi hech kimning xotirasidan o'chmaydi. Uning ijodini davom ettiradiga yoshlar tug'ilaveradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Adabiyot 8-sinf S.Olim , S. Ahmedov G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi Toshkent- 2014
2. "Bulbulga bir gapim bor" G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent- 1987
3. Muhammad Yusuf "Saylanma" "Sharq" nashriyoti Toshkent- 2017
4. Muhammad Yusuf "Shoir sevgisi ""Noshir" Toshkent- 2019
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
6. Arxiv.uz
7. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

<sup>3</sup> Muhammad Yusuf " Saylanma" "Sharq" nashriyoti Toshkent-2017 357-bet